

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A.	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович	
ОПТИК ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	



HUNARMANDCHILIK KLASTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI

Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li

TDAU tayanch doktranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hunarmandchilik klasterlarini boshqarish sohasida Turkiya, Marokash va Fransiyaning ilg'or tajribasi qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. 2024-2025 yillardagi UNESCO, UNIDO va milliy statistika idoralari so'nggi ma'lumotlaridan foydalanib, uchta mamlakatning klaster tuzilmasi, davlat boshqaruvi mexanizmlari, raqamlashtirish strategiyasi va eksport ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Marokash 7% YaIM ulushi, Turkiya hunarmandchilik va turizm sinergiyasi (12.5% YaIM) va Fransiyaning 'Maitres d'Art' kadrlar tizimi O'zbekiston uchun bevosita tatbiq etish mumkin bo'lgan modellar hisoblanadi. Maqola O'zbekiston hunarmandchiligini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik klasteri, Turkiya klasterlari, Marokash modeli, Fransiya Maitres d'Art, klaster boshqaruvi, YaIM ulushi, eksport strategiyasi, O'zbekiston.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the advanced experiences of Turkey, Morocco, and France in the management of handicraft clusters. Drawing on the latest data (2024–2025) from UNESCO, UNIDO, and national statistical agencies, the study compares the cluster structures, public governance mechanisms, digitalization strategies, and export performance of these three countries. The analysis demonstrates that Morocco's handicraft sector, contributing approximately 7% to GDP, Turkey's successful integration of handicrafts with tourism (12.5% of GDP), and France's *Maîtres d'Art* master artisan training system represent practical models that can be effectively adapted to Uzbekistan. The article concludes with policy recommendations aimed at strengthening the competitiveness, sustainability, and export potential of Uzbekistan's handicraft sector.

Keywords: handicraft clusters, Turkish cluster model, Moroccan model, French *Maîtres d'Art* system, cluster management, GDP contribution, export strategy, Uzbekistan.

KIRISH

Hunarmandchilik klasterlari jahon iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon hunarmandchilik bozori 2024-2025-yillarda 850-900 mlrd dollarga yetib, yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 10.5% ni tashkil etdi. Bu tendentsiya hunarmandchilik sohasi iqtisodiyotga muhim hissa qo'shayotgan davlatlar — Turkiya, Marokash va Fransiya — tajribasini o'rganishni dolzarb qilib qo'ymoqda.¹

Maykl Porter (1990) klaster nazariyasi asosida hunarmandchilik klasterlari geografik jihatdan yaqin joylashgan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat va hamkorlikni bir vaqtda rivojlantirib, alohida korxonalar erishishi mumkin bo'lmagan raqobatbardosh ustunlikni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada uchta mamlakatning - Turkiya, Marokash va Fransiyaning - klaster boshqaruv modellari o'rganiladi va ulardan O'zbekiston uchun amaliy xulosa chiqariladi.²

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli tahlil va statistik ma'lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Manba bazasi: T.C. Sanayi ve Teknoloji Bakanligi (Turkiya, 2024), Ministère de l'Artisanat du Maroc (2025), Ministère de la Culture (Fransiya, 2025), UNESCO va UNIDO rasmiy hisobotlari.³

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster boshqaruvi sohasidagi adabiyotlar ikki yo'nalishni ko'rsatadi: (1) Yevropa modellari — Italiya,

1 Future Market Insights (2026). Handicraft Market Size, Market Forecast and Outlook 2026-2036. 333 b. URL: <https://www.futuremarketinsights.com>

2 Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press, Nyu-York. 855 b.

3 UNESCO (2024). Report on Intangible Cultural Heritage: Traditional Craftsmanship. Paris. URL: <https://ich.unesco.org>

Fransiya va Ispaniyaning GI va brend tizimi; (2) Sharq modellari — Marokash, Hindiston va Turkiyaning milliy dasturlar orqali yutuqlari. Schmitz (1999) rivojlanayotgan mamlakatlar klasterlarini o'rganib, 'kollektiv samaradorlik' kontsepsiyasini taklif qildi: klaster a'zolari individual raqobatdan umumiy infratuzilma va marketing orqali ko'proq foyda ko'radi.⁴

Marokash tajribasi bo'yicha Ababou & El Harrak (2023) 2015-2025 milliy dasturni baholab, eksport 3.5 barobar o'sganini va 250,000 hunarmand sog'liq sug'urtasiga qo'shilganini aniqladi. Turkiya uchun Erdogan & Yilmaz (2024) gilamchilik klasteri eksporti va turizm daromadi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni isbot etdi.⁵


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, statistik tahlil, kuzativ, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Uchta Davlatning YaIMga Ulushi: Qiyosiy Tahlil

1-rasmda uchta mamlakatning hunarmandchilik sektorining YaIMga ulushi ko'rsatilgan. Turkiya da hunarmandchilik va turizm birgalikda YaIMning 12.5% ini tashkil etadi; Marokash hunarmandchilik sohasining to'g'ridan-to'g'ri 7% ulushi bilan yetakchi; Fransiya ijodiy-madaniy iqtisodiyot doirasida 3.5% ko'rsatkichiga ega. (1-rasm).



1-Rasm. Hunarmandchilik sektorining YaIMga ulushi: Turkiya, Marokash va Fransiya (2024-2025)⁶

2. Turkiya: Klaster Tuzilmasi va Raqamlashtirish Strategiyasi

Turkiya O'n Ikkinchi Rivojlanish Rejasi (2024-2028) hunarmandchilikni ustuvor tarmoq sifatida belgiladi. KOSGEB (KO'K rivojlantirish agentligi) orqali yillik 500 mln lira klaster moliyalashtirish amalga oshirilmoqda.⁷ (1-jadval).

4 Schmitz H. (1999). Collective Efficiency and Increasing Returns. Cambridge Journal of Economics, 23(4), pp. 465-483.

5 Ababou M., El Harrak M. (2023). Morocco's National Artisanat Programme 2015-2025: Impact Assessment. Revue Marocaine de l'Artisanat, Vol.4, pp. 12-28.

6 Milliy statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

7 KOSGEB (2024). Kucuk ve Orta Olcekli Isletmeleri Gelistirme ve Destekleme Idaresi Baskanligi – Yillik Rapor. Ankara.



1-Jadval. Turkiyaning asosiy hunarmandchilik klasterlari (2024-2025)⁸

Klaster	Joylashuv	Ixtisoslik	Iqtisodiy ko'rsatkich
Istanbul Distrikti	Istanbul	Zangori chinnii, gilamlar, mis	15 mln turist/yil
Usak gilamchilik	Usak	Yungli gilamlar	\$300 mln eksport/yil
Izник sopol	Izник	Sopol plitka (UNESCO)	2024-yil UNESCO a'zosi
Bursa ipakchilik	Bursa	Ipak mahsulotlari	1,200 yillik an'ana

2024-2025-yillardagi 'CrafDi' (Crafting Digitally) loyihasi doirasida 2,000 dan ortiq qishloq hunarmandiga e-tijorat ko'nikmalari o'rgatilib, ularning onlayn savdosi o'rtacha 40% oshdi. Izник va Gaziantep shaharlari 'UNESCO Ijodiy Shaharlar Tarmog'i' a'zoliqiga ega bo'lib, bu ularning xalqaro brendi va turizm jalb etishini sezilarli darajada kuchaytirdi.⁹

3. Marokash: 7% YaIM va Milliy Dastur Muvaffaqiyati

Marokash — hunarmandchilik sektorining YaIMga ulushi bo'yicha dunyo bo'lab eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega davlat. 2015-2025-yillardagi milliy dastur natijalari: yillik daromad 140 mlrd dirham (14 mlrd dollar); eksport 3.5 barobar o'sdi; 250,000 hunarmand sog'liq sug'urtasiga qo'shildi¹⁰ (2-jadval).

2-Jadval. Marokash hunarmandchilik sohasi dinamikasi: 2015-2025¹¹

Ko'rsatkich	2015 yil	2025 yil	O'sish
Yillik eksport	350 mln dirham	1.23 mlrd dirham	+3.5 barobar
Hunarmandlar soni	2.3 mln	2.7 mln	+17%
Sug'urta qamrovi	40,000	250,000	+525%
E-tijorat ulushi	1%	8%	+7 pp
YaIMga ulush	5.5%	7.0%	+1.5 pp

Marokash modelining o'ziga xos xususiyatlari: (1) Hunarmandchilik vazirligi — markaziy boshqaruv; (2) Dar Sanaa texnik markazlari tarmog'i — 8 ta shaharda 12 ta markaz; (3) Maison de l'Artisan — eksport savdolari va marketing; (4) Ayollar uchun maxsus mikrokreditlar — hunarmandlarning 54% i ayollar.¹²

4. Fransiya: 'Maitres d'Art' va Ijodiy Iqtisodiyot Tizimi

Fransiya hunarmandchilik boshqaruvida dunyodagi eng rivojlangan kadrlar tizimiga ega. 1994 yildan buyon amalga oshirilayotgan 'Maitres d'Art' dasturi an'anaviy bilimlarni uzatishning rasmiy va isbotlangan mexanizmidir¹³ (3-jadval).

3-Jadval. Fransiyaning 'Maitres d'Art' dasturi tizimi¹⁴

Dastur elementi	Mazmun	Natija
Unvon berish	Yilik 5-10 nafar eng sara hunarmandga	Davlat tomonidan tan olinish
Stipendiya	3 yil davomida oylik to'lov	Hunarmandlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash
Shogirdlik	Har usta 1-2 shogird tayinlaydi	Bilim uzatish tizimi
Ko'rgazmalar	Paris, Lyon, Bordeaux — yillik festival	Brend va bozor qurish
BPIfrance kredit	Preferensial stavkada mikrokreditlar	Kapitalga kirish imkoni

Fransiyaning ijodiy-madaniy sanoatlar (ICC) tizimi doirasida hunarmandchilik sektori YaIMning 3.5% ini

8 Manba: T.C. Kultur ve Turizm Bakanligi (2025). El Sanatlari Sektoru Raporu.

9 T.C. Kultur ve Turizm Bakanligi (2025). El Sanatlari Sektoru Raporu ve Ihracat Istatistiklari 2024. Ankara.

10 Ministère de l'Artisanat du Maroc (2025). Rapport annuel du secteur de l'artisanat marocain 2025. Rabat. URL: <https://www.artisanat.gov.ma>

11 Manba: Ministère de l'Artisanat du Maroc (2025). Rapport annuel.

12 Maison de l'Artisan Maroc (2025). Rapport sur les clusters artisanaux et les résultats à l'export 2025. Rabat.


13 Ministère de la Culture (France) (2025). Programme Maîtres d'Art – Bilan annuel 2025. Direction générale de la création artistique, Paris.

14 Manba: Ministère de la Culture (France) (2025). Programme Maîtres d'Art – Bilan annuel.

tashkil etadi. BPIfrance tomonidan hunarmandlarga ajratiladigan preferensial kreditlar yillik 1.2 mlrd yevrodan ortiq — bu dunyo miqyosida hunarmandlik sektoriga yo'naltirilgan eng katta davlat moliyalashtirishlaridan biridir.¹⁵

5. Uch Davlat Boshqaruv Modelining Radar Tahlili

2-rasm yetti mezonda uch davlatning boshqaruv imkoniyatlarini solishtiradi. Fransiya kadrlar tizimi bo'yicha (10/10) tengsiz; Marokash eksport qo'llab-quvvatlash (9/10) va moliyaviy mexanizm (9/10) bo'yicha yetakchi; Turkiya raqamlashtirish (8/10) va marketing (8/10) bo'yicha kuchli¹⁶ (2-rasm).



2-Rasm. Turkiya, Marokash va Fransiya hunarmandchilik boshqaruvi radar tahlili (1=past, 10=juda yuqori; muallif baholashi asosida)

O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR

Uch davlatning tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston hunarmandchilik sohasi uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi (4-Jadval).

4-Jadval.

Xorijiy tajribaga asoslangan O'zbekiston uchun tavsiyalar¹⁷

Sohasi	Etalon model	O'zbekiston uchun qadam	Muddat
Kadrlar tizimi	Fransiya 'Maitres d'Art'	'O'zbek Hunarmand Ustasi' unvoni: 15-20 nafar/yil, stipendiya	2025
Vazirlik tuzilmasi	Marokash vazirligi	Hunarmandchilik bo'limini alohida bo'lim sifatida kuchaytirish	2025
Texnik markazlar	Marokash Dar Sanaa	14 viloyatda texnik markaz ochish	2026-2027
Raqamlashtirish	Turkiya CrafDi	2,000 hunarmandni e-tijoratga o'qitish/yil	2025-2026
Eksport strategiyasi	Marokash Maison	'O'zbek Craft' eksport markazi tashkil etish	2026
Turizm sinergiyasi	Turkiya Istanbul modeli	Klaster-turizm marshrutlari: BuxoraSamarqandXiva	2026-2027

15 BPIfrance (2024). Rapport annuel: Financement des entreprises artisanales et culturelles. Paris. URL: <https://www.bpifrance.fr>
 16 Muallif tomonidan T.C. Sanayi ve Teknoloji Bakanligi (2024), Ministère de l'Artisanat du Maroc (2025) va Ministère de la Culture (2025) ma'lumotlari asosida tuzildi.
 17 Muallif tomonidan Porter (1990), UNIDO (2024) va xorijiy milliy hisobotlar asosida tuzildi.



Marokash modelining asosiy xususiyati — markaziy Hunarmandchilik vazirligi orqali yagona boshqaruv, mahalliy Dar Sanaa texnik markazlari va Maison de l'Artisan eksport markazi uch qatlamli tizim hosil qiladi. Turkiya esa klasterlarni turizm bilan organik bog'lash orqali hunarmandchilik daromadini to'g'ridan-to'g'ri turizm kirimlari bilan ko'paytirdi. Fransiyaning 'Maitres d'Art' modeli esa an'anaviy bilimlarni rasmiy va barqaror uzatish mexanizmini ta'minladi.¹⁸

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil Turkiya, Marokash va Fransiyaning hunarmandchilik klasterlarini boshqarish tajribasi iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligi klasterlar samaradorligini belgilovchi asosiy shart ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, hunarmandchilik klasterlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligi faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan emas, balki davlat siyosati, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va turizm bilan integratsiyalashgan boshqaruv tizimini shakllantirish orqali ta'minlanadi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, birinchi navbatda, Marokash tajribasi hunarmandchilikni rivojlantirishda izchil va uzoq muddatli davlat strategiyasining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. 2015–2025-yillarga mo'ljallangan milliy dastur, maxsus vazirlik va hududiy klasterlarni institutsional qo'llab-quvvatlash tizimi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada oshirishga hamda eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu esa klaster siyosati qisqa muddatli loyihalar emas, balki tizimli davlat boshqaruvi mexanizmlariga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Turkiya tajribasi raqamlashtirish va turizm bilan integratsiyalashuv hunarmandchilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Elektron savdo platformalari, raqamli marketing vositalari va turistik marshrutlar bilan uyg'unlashtirilgan hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ishlab chiqaruvchilarning daromadini oshiradi, balki xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur yondashuv klasterlarni mahalliy ishlab chiqarish markazidan yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi innovatsion iqtisodiy ekotizimga aylantirish imkonini beradi.

Uchinchidan, Fransiyaning "Maîtres d'Art" modeli hunarmandchilik klasterlarining barqaror rivojlanishida inson kapitali va kasbiy merosni avloddan-avlodga uzatish tizimining strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Ustoz-shogird institutini davlat darajasida qo'llab-quvvatlash, milliy sertifikatlash tizimi va professional maqomning joriy etilishi nafaqat noyob an'anaviy texnologiyalarni saqlab qolishga, balki yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali klasterlarning innovatsion salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun eng maqbul rivojlanish modeli alohida mamlakat tajribasini to'liq ko'chirish emas, balki ularning eng samarali elementlarini milliy sharoitga moslashtirgan integratsiyalashgan klaster boshqaruvi modelini shakllantirishdan iborat. Xususan, Marokashning institutsional boshqaruv tizimi va milliy dasturi, Turkiyaning raqamlashtirish hamda turizm bilan integratsiyalashuv mexanizmlari, shuningdek, Fransiyaning ustoz-shogird asosidagi kadrlar tayyorlash tizimini uyg'unlashtirish O'zbekiston hunarmandchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ushbu integratsiyalashgan modelni bosqichma-bosqich joriy etish 2030-yilgacha hunarmandchilik sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini taxminan 2,5 foizdan 7 foizgacha, eksport hajmini esa 268 million AQSh dollaridan yuqori darajaga yetkazish imkoniyatini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu natijalarga erishish huquqiy bazani takomillashtirish, geografik ko'rsatkichlar (GI) tizimini joriy etish, klasterlar faoliyatini raqamlashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish hamda hududiy turizm infratuzilmasi bilan integratsiyani kuchaytirish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot hunarmandchilik klasterlarini rivojlantirish iqtisodiy o'sish, madaniy merosni asrash, hududiy bandlikni ta'minlash va eksportni diversifikatsiya qilishning muhim omillaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Taklif etilgan konseptual yondashuv va amaliy tavsiyalar O'zbekistonda zamonaviy, innovatsion va xalqaro standartlarga mos hunarmandchilik klasterlari tizimini shakllantirish uchun ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.¹⁹

18 UNIDO (2024). Cluster Development Programme Manual: Methodology and Best Practices. Vienna.

19 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-son Qarori (2023). Xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari. Toshkent. URL: <https://lex.uz>



REFERENCES

1. Future Market Insights (2026). Handicraft Market Size, Market Forecast and Outlook 2026-2036. 333 b.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press, Nyu-York.
3. UNESCO (2024). Report on Intangible Cultural Heritage: Traditional Craftsmanship. Paris.
4. Schmitz H. (1999). Collective Efficiency and Increasing Returns. Cambridge Journal of Economics, 23(4), pp. 465-483.
5. Ababou M., El Harrak M. (2023). Morocco's National Artisanat Programme 2015-2025: Impact Assessment. Revue Marocaine de l'Artisanat, Vol.4, pp. 12-28.
6. Erdogan S., Yilmaz B. (2024). Carpet Cluster Export and Tourism Revenue in Turkey. Journal of Turkish Economic Studies, 11(1), pp. 33-50.
7. T.C. Sanayi ve Teknoloji Bakanligi (2024). 12. Kalkinma Planı (2024-2028). Ankara.
8. T.C. Kultur ve Turizm Bakanligi (2025). El Sanatlari Sektoru Raporu 2024. Ankara.
9. KOSGEB (2024). Kucuk ve Orta Olcekli Isletmeleri Gelistirme – Yillik Rapor. Ankara.
10. Ministère de l'Artisanat du Maroc (2025). Rapport annuel du secteur de l'artisanat 2025. Rabat.
11. Maison de l'Artisan Maroc (2025). Rapport sur les clusters artisanaux 2025. Rabat.
12. Ministère de la Culture (France) (2025). Programme Maitres d'Art – Bilan annuel 2025. Paris.
13. BPIfrance (2024). Rapport annuel: Financement des entreprises artisanales. Paris.
14. UNIDO (2024). Cluster Development Programme Manual. Vienna.
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi (2025). Sanoat ko'rsatkichlari. Toshkent.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-107-son Qarori (2023). Toshkent. URL: <https://lex.uz>
17. Grand View Research (2025). Handicraft Market Size & Trends Analysis Report 2025-2030.
18. WTTC (2025). Travel & Tourism Economic Impact 2025. London.
19. Becattini G. (2004). Industrial Districts: A New Approach to Industrial Change. Edward Elgar.
20. WIPO (2024). Geographical Indications: A Toolkit for Policy Makers. Geneva.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100